



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

MUNDARIJA:

NAZARIYA VA METODOLOGIYA	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева Янги Ўзбекистоннинг бойлиги инсон ресурслари билан ўлчанади	5
Сарвар Аюбовна Исхакова Ўзбекистонда хизматлар соҳасини модернизация ва диверсификация қилишнинг асосий йўналишлари	13
Anvar Nematovich Xoliqulov Servis sifati tushunchasining nazariy talqini	18
Зухриддин Санжар ўғли Рашидов Корхона самарадорлигини оширишни меҳнат ресурслари ҳаракати билан боғланишининг ўзига хос хусусиятлари	21
Mexrangiz Axtam qizi Mullayeva Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari	25
SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI	
Фарида Абдухалимовна Ахмеджанова Роль эстетических показателей тканей в формировании потребительских и эксплуатационных свойств изделий	31
Рузбой Нормакматов, Акрам Гафуров, Баҳора Тўлқинова В ₁ - витамин (тиамин): ва унинг инсон соғлигини сақлашдаги аҳамияти	34
Junaydillo Sadiyevich Fayziyev Atrof-muhitga chiqarilayotgan sut zardobi tarkibidagi zardob oqsillari miqdorini kamaytirish texnologiyasi	37
Ro‘ziboy Normaxmatov, Zakirjon Erkinovich Mamarasulov, Ravshan Pirmatov Askorbin kislotasi (C vitamini) va uning ahamiyati	41
TADBIRKORLIK, MEHNAT, BANDLIK VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH	
Феруз Нематуллаевич Абилов Худудларда камбағалликни қисқартиришнинг инновацион йўналишлари	44
XIZMAT KO‘RSATISH VA SERVIS	
Обид Мамаюнусович Пардаев Коммунал хизматларни ривожлантиришнинг маъмурий-бошқарув ва инфратузилмавий институтционал асосларини такомиллаштириш	50
Акмал Алимжонович Салимов Ривожланган мамлакатларнинг олий таълим хизматлари сифатини ошириш тажрибаларидан Ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари	56
Firuz Kurbanovna Achilova Mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellari	61
Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов Хизмат кўрсатиш соҳасида сохта иқтисодиётнинг айрим кўринишлари ва уни бартараф этишнинг амалий йўналишлари	66
Xusnora Dilmurod qizi Umarova Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	71
Jahongir Aktamovich Haydarov Logistikada transport xizmatlari raqobatbardoshligini baholashning kompleks yondashuvlari	75

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 10 декабрдаги “Нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга қаратилган кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПФ-246-сон фармони
2. Pardaev M.K., Abduvohidov N.R., “The concept of the shadow economy and some recommendations for its elimination”-Web of Discoveries:Journal of Analysis and Inventions-volume 3, Issue 7, July-2025, ISSN(E):2938-3773.
3. Абдувоҳидов Н.Р.,-“Хизмат кўрсатиш соҳасида иш ўринларини яратишда сохта иқтисодиёт ва уни бартараф этишнинг амалий йўналишлари”-Сервис –илмий-амалий журнали, 2025 йил №3
4. Абдувоҳидов Н.Р.,-“Яширин иқтисодиёт”га методологик ёндашувни такомиллаштириш-Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журнали-2025 йил, 15-жилд, 3-сон, ISSN 3030-3672.
5. Статистика ва солиқ идоралари маълумотлар базаси асосида муаллиф томонидан тайёрланган таҳлилий маълумотлар.

<p>Н.Абдувоҳидов</p> <p>Некоторые проявления ложной экономики в секторе услуг и практические направления ее устранения</p> <p>Аннотация. В статье исследована ситуация с занижением объема проданных товаров, выполненной работы и услуг, то есть ложной экономикой, в субъектах сферы услуг (на примере хозяйствующих субъектов Самаркандской области) и ее влияние на макроэкономические показатели. Автор изложил свои практические предложения и выводы по устранению и предотвращению занижения объема проданных товаров, выполненной работы и услуг в государственном секторе, то есть ложной экономики.</p> <p>Ключевые слова: государственный сектор, скрытая экономика, ложная (фиктивная) экономика, занижение в экономике, налогово-статистическая отчетность, цифровизация, цифровая экономика, валовой внутренний продукт (ВВП), валовой региональный продукт (ВРП).</p>	<p>N.Abduvohidov</p> <p>Some manifestations of a false economy in the service sector and practical ways to eliminate it</p> <p>Abstract. This article examines the underreporting of goods sold, work performed, and services rendered — that is, a false economy — in service sector entities (using the example of economic entities in the Samarkand region) and its impact on macroeconomic indicators. The author outlined his practical proposals and conclusions for eliminating and preventing the underreporting of goods sold, work performed, and services rendered — that is, a false economy — in the public sector.</p> <p>Keywords: public sector, hidden economy, false (fictitious) economy, underreporting in the economy, tax and statistical reporting, digitalization, digital economy, gross domestic product (GDP), gross regional product (GRP).</p>
---	--

Xusnora Dilmurod qizi Umarova – Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

OROLBO‘YI MINTAQASIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonning ekologik jihatdan eng murakkab hududlaridan biri hisoblangan Orolbo‘yi mintaqasi, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion boshqarish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqada xizmatlar sektorining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligi baholanadi.

Kalit so‘zlar: Orolbo‘yi mintaqasi, xizmat ko‘rsatish sohasi, innovatsion boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, klaster, raqamli iqtisodiyot, hududiy rivojlanish.

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining strategik maqsadlarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun Orolbo‘yi mintaqasida BMTTD tomonidan ko‘mak berilayotgan tashabbuslarda tizimli innovatsiyaviy yondashuv tadbiriq etilmoqda. Bunday

yondashuv mintaqadagi atrof muhit va bir qator zaiflik omillarining ta'siri ostiga tushib qolishi mumkin bo'lgan aholi uchun ijobiy va keng qamrovli natijalarga erishishga yordam beradi hamda mazkur hududni tabiiy ofat munosabati bilan yodga olinadigan mintaqadan Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirishga ko'maklashadi. Muvaffaqiyatga erishilgan holatda ushbu tajribaviy yechimlarni tadbiiq etish ko'lami keyinchalik milliy va xalqaro darajalarda kengaytirilishi mumkin. Xalqaro muxatassis Efrat Yovel xonim va Orolbo'yi mintaqasida BRMni integratsiya qilish bo'yicha tashabbusning millik muvofiqlashtiruvchisi Ravshan Yunusov rahbarliklari ostidagi o'quv tadbiri hozirgi vaqtda Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilayotgan 38ta loyihadan iborat boshlang'ich ro'yxatdan dastlab tanlab olingan 24ta loyihadan iborat loyihalar portfelini amalga oshirish tajribasiga bag'ishlandi. Tadbirining birinchi kuni tizimli innovatsiyaviy yondashuvga qisqacha ta'rif berish, uni tadbiiq qilish yo'lidagi ehtimoliy to'siqlarni aniqlash, Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilayotgan loyihalarning o'zaro bog'liqligini o'rganish hamda barqaror va o'zaro bog'liq loyihalar portfelini yaratishdagi ehtiyojlarni ko'rib chiqish kabi masalalardan boshlandi. Tadbirida 40 nafarga yaqin milliy va xalqaro darajadagi mutaxassislar qatnashdilar, jumladan loyihaning O'zbekistondagi BMTTDdan va Innovatsion rivojlanish vazirligi boshchiligidagi milliy sheriklardan vakillari, shuningdek nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari ishtirok etdilar. Mintaqadagi innovatsiyalarning yo'nalishlari suv manbalarining boshqaruvini takomillashtirish, energiya samaradorligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi yuritishning zamonaviy uslublarini tadbiiq etish, hayot darajasini oshirish, tabiiy resurslarni muxofaza qilish, infratuzilmani rivojlantirish va jamoatlar barqarorlini ta'minlash kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanishi masalalarini dastlab tadqiq etgan olimlardan biri P. Drucker bo'lib, u innovatsiyalarni nafaqat texnologik yangiliklar, balki boshqaruv va tashkiliy yondashuvlar bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, xizmatlar sektorida innovatsion boshqaruv raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Shuningdek, M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi hududiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Porteriga ko'ra, xizmatlar klasterlari mintaqada bilimlar almashinuvi, innovatsiyalarni tez joriy etish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya masalalarini tadqiq etgan AQSHlik iqtisodchilar (Brynjolfsson, McAfee) xizmatlar sektorida raqamli platformalarning mehnat unumdorligini 20–30 foizga oshirish imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan raqamli infratuzilma xizmatlar sohasida innovatsion boshqaruvning asosiy tayanchi hisoblanadi. Bu yondashuv Orolbo'yi mintaqasi kabi chekka hududlar uchun ayniqsa dolzarbdir.

O'zbekiston iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida ham xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish masalalari muhim o'rin egallaydi. Jumladan, S. G'ulomov, B. Xodiev, D. Qodirov va boshqa olimlar xizmatlar sektorining milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va servis infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalarini chuqur tahlil qilgan. Ularning ilmiy ishlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda davlat siyosatining roli, soliq rag'batlari va investitsiya mexanizmlarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Material va metod. Mazkur ilmiy maqolada Orolbo'yi mintaqasida xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks ilmiy metodologiya asosida tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, statistik va ekonometrik modellar, shuningdek, tizimli yondashuv keng qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. 2020–2025 yillar davomida Orolbo'yi mintaqasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga qaratilgan qator davlat dasturlari amalga oshirildi. Jumladan, “Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi” doirasida servis, turizm, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirildi. Shunga qaramay, xizmatlar sohasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada joriy etilmagani, institutsional muhitning sustligi va raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasining pastligi ushbu sohaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasining strategik ahamiyati, birinchidan, aholi bandligini tezkor oshirish imkoniyati bilan bog'liq. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida

band aholining qariyb 38 foizi xizmatlar sektorida faoliyat yuritgan bo‘lsa, Xorazm viloyatida bu ko‘rsatkich 41 foizni tashkil etgan. Ikkinchidan, servis sohasida innovatsiyalarni joriy etish nisbatan kam kapital talab etadi va ekologik yuklamani kamaytiradi, bu esa Orolbo‘yi mintaqasi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat ilmiy, balki yuqori amaliy ahamiyatga ega masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolada mazkur muammo kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi va hudud sharoitiga mos innovatsion yechimlar taklif etiladi.

Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holatini baholashda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining 2020–2025 yillardagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu hududlar ekologik muammolarning yuqori darajasi bilan ajralib turgan bo‘lsa-da, xizmatlar sohasi mintaqaviy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim drayverga aylanish imkoniyatiga ega.

Xizmat ko‘rsatish sohasining hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni ya‘ni, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida Orolbo‘yi mintaqasida xizmatlar sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ijobiy o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasining YaHMdagi ulushi 2020 yilda 34,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 39,6 foizga yetdi. Xorazm viloyatida esa ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 37,2 foizdan 42,8 foizgacha oshdi. Xizmatlar sektorining o‘sishi, asosan, savdo, transport-logistika, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va axborot-kommunikatsiya xizmatlari hisobiga ta‘minlandi. Ayniqsa, 2022 yildan boshlab raqamli xizmatlar va onlayn platformalar ulushining ortishi mintaqada servis xizmatlari tarkibining sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keldi.

Xizmatlar sohasida bandlik va investitsion faollik asosan bandlik ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi Orolbo‘yi mintaqasida aholini ish bilan ta‘minlashning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. 2023 yil yakunlariga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida band aholining ulushi 38 foizni, Xorazm viloyatida esa 41 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar 2020 yilga nisbatan mos ravishda 6–7 foiz band punktiga oshgan. Investitsiyalar hajmi ham xizmatlar sektorining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. 2020–2024 yillarda Orolbo‘yi mintaqasida xizmatlar sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 1,8 barobarga oshdi. Biroq investitsiyalarning katta qismi savdo va transport xizmatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, innovatsion servis turlari (IT-xizmatlar, konsalting, ekologik xizmatlar) ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda.

Xizmatlar sohasining tarkibiy tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, Orolbo‘yi mintaqasida xizmatlar bozorida past qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlar ustunlik qilmoqda. Jumladan, 2024 yilda savdo xizmatlari umumiy xizmatlar hajmining 32–35 foizini, transport xizmatlari 18–20 foizini tashkil etgan. Bunga qarshi ravishda, bilimga asoslangan xizmatlar (IT, ilmiy-texnik xizmatlar, biznes-konsalting) ulushi 6–8 foizdan oshmayapti. Bu holat xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Xususan, startap infratuzilmasining zaifligi, malakali kadrlar yetishmasligi va raqamli xizmatlarga talabning pastligi asosiy cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

SWOT-tahlil natijalari ham orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash maqsadida SWOT-tahlil amalga oshirildi va uni quyidagi tomonlarini ko‘rishimiz mumkin.

Kuchli tomonlar:

- Davlat tomonidan Orolbo‘yi mintaqasiga alohida e‘tibor va maxsus dasturlar mavjudligi
- Mehnat resurslarining nisbatan arzonligi
- Xizmatlar sohasida kichik biznes ulushining yuqoriligi

Zaif tomonlar :

- Innovatsion boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi
- Past qo‘shilgan qiymatli xizmatlar ustunligi
- Institutsional va infratuzilmaviy cheklovlar

Imkoniyatlar:

- Ekologik, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar bozorining kengayishi
- Raqamli platformalar orqali hududiy cheklovlarni bartaraf etish

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2024 yillar davomida Orolbo'yi mintaqasida xizmatlar sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining YaHMdagi ulushi 2020 yilda 34,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 39,6 foizga yetdi. Xorazm viloyatida esa ushbu ko'rsatkich mos ravishda 37,2 foizdan 42,8 foizgacha oshdi.

Xizmatlar sektorining o'sishi, asosan, savdo, transport-logistika, ta'lim, sog'liqni saqlash va axborot-kommunikatsiya xizmatlari hisobiga ta'minlandi. Ayniqsa, 2022 yildan boshlab raqamli xizmatlar va onlayn platformalar ulushining ortishi mintaqada servis xizmatlari tarkibining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keldi.

Xulosa va takliflar. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonning ekologik jihatdan eng murakkab hududlaridan biri hisoblangan Orolbo'yi mintaqasi, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida xizmatlar sektorining hududiy iqtisodiyotdagi o'rni, rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar 2020–2025 yillar statistik ma'lumotlari asosida baholandi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Orolbo'yi mintaqasida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning innovatsion rivojlanish darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan pastligicha qolmoqda. Xizmatlar tarkibida past qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarning ustunligi, raqamli boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada joriy etilmagani va institutsional cheklolvar sohaning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etildi. Ushbu mexanizm xizmatlar klasterlarini shakllantirish, raqamli platformalar asosida boshqaruvni joriy etish hamda soliq va moliyaviy rag'batlantirish vositalarini kengaytirishni o'z ichiga oladi. Isroil va AQSH tajribasi asosida ishlab chiqilgan mazkur yondashuv Orolbo'yi mintaqasi sharoitiga moslashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Orolbo'yi mintaqasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi tegishli dasturlari (2020–2025 yy.).
2. Drucker, P. F. (1985). *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. Harper & Row. (Maqolada innovatsiyalarning boshqaruvdagi o'rni bo'yicha keltirilgan).
3. Porter, M. E. (1998). *On Competition*. Harvard Business Review Book. (Klaster nazariyasi bo'yicha).
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company. (Raqamli platformalar unumdorligi bo'yicha).
5. G'ulomov, S. S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalar. O'quv qo'llanma va ilmiy maqolalar to'plami.
6. Xodiev, B. Y., Berdomurodov, A. A. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda xizmat ko'rsatish sohasining roli. Ilmiy tadqiqotlar tahlili.
7. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati Statistika boshqarmalari hisobotlari. (2020–2024 yillar). "Yalpi hududiy mahsulot va aholi bandligi ko'rsatkichlari".
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). Xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik to'plam. Toshkent.
9. BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD/UNDP). (2024). "Orolbo'yi mintaqasida tizimli innovatsiyaviy yondashuv va loyihalar portfelini boshqarish" bo'yicha hisobot va metodik tavsiyalar.
10. Yovel, E., & Yunusov, R. (2024). Orolbo'yi mintaqasida BRMni integratsiya qilish va innovatsion loyihalar portfelini amalga oshirish tajribasi. Xalqaro seminar materiallari.
11. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Mintaqaviy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish strategiyasi (2022–2026).

<p>Х.Умарова</p> <p>Совершенствование организационно-экономических механизмов инновационного управления сферой обслуживания в Приаральском регионе</p> <p>Аннотация. В данной научной статье проводится глубокий анализ вопросов инновационного управления сферой услуг в районе Приаралья, одном из экологически наиболее сложных регионов Узбекистана, в частности в Республике Каракалпакстан и Хорезмской области. В исследовании оцениваются текущее состояние сектора услуг в регионе, тенденции его развития и эффективность существующих организационно-экономических механизмов.</p> <p>Ключевые слова: регион Приаралья, сфера услуг, инновационное управление, организационно-экономический механизм, кластер, цифровая экономика, территориальное развитие.</p>	<p>Kh.Umarova</p> <p>Improving the organizational and economic mechanisms of innovative management in the service sector in the Aral Sea region</p> <p>Abstract. This scientific article provides an in-depth analysis of the issues of innovative management in the service sector in the Aral Sea region, one of the most ecologically challenging areas of Uzbekistan, particularly in the Republic of Karakalpakstan and the Khorezm region. The study evaluates the current state of the service sector in the region, development trends, and the effectiveness of existing organizational and economic mechanisms.</p> <p>Keywords: Aral Sea region, service sector, innovative management, organizational and economic mechanism, clusters, digital economy, regional development.</p>
---	--

Jahongir Aktamovich Haydarov – SamISI, Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti v.b., PhD

**LOGISTIKADA TRANSPORT XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI
BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVLARI**

<p>Annotatsiya. Ushbu maqolada avtotransport xizmatlari bozorida raqobatning rivojlanishi va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish zahiralari bugungi kunda transport infratuzilmasi va xizmatlarini sotish ishtirokchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolari yoritilgan. Maqola orqali transport xizmatlari raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha ilmiy ishlanmalarni o‘rganish va avtotransport korxonasi raqobatbardoshligi omillarini aniqlashdan iborat.</p> <p>Kalit so‘zlar: avtotransport xizmatlari; sifat; raqobatbardoshlik; mezon; rentabellik; boshqaruv; narx.</p>
--

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida logistika tizimining samarali faoliyat yuritishi transport xizmatlari sifati, tezkorligi va iqtisodiy samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmining ortishi, elektron tijoratning rivojlanishi hamda yetkazib berish zanjirlarining murakkablashuvi transport xizmatlariga bo‘lgan talabni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada transport xizmatlari nafaqat yuk va yo‘lovchilarni tashish vositasi, balki logistika zanjirining strategik elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, transport infratuzilmasini rivojlantirish, logistika zanjirlarini optimallashtirish, multimodal tashuvlarni kengaytirish hamda xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishi transport xizmatlarini innovatsion rivojlantirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Jumladan, mavjud transport xizmatlari bozori kon’yunkturasini chuqur iqtisodiy tahlil qilish, hududiy transport-logistika klasterlarini shakllantirish, sohaning institutsional-huquqiy asoslarini mustahkamlash va ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Bunday sharoitda transport xizmatlarining raqobatbardoshligini ta’minlash va uni ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, logistika tizimida transport xizmatlari ko‘rsatishning samaradorligi, ishonchliligi, moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur maqolada logistika tizimida transport xizmatlari raqobatbardoshligini baholashning kompleks yondashuvlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Natijada kapitalning avtomobil transporti sohasiga va boshqa tarmoqlar o‘rtasida tezkor migratsiyasi kuzatilmoqda. Avtotransport korxonalarini faoliyatida xizmatlarning amaldagi raqobatbardoshlik darajasi bilan bozor talablarining mos kelmasligi doimiy xavf sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur nomuvofiqlik kritik darajadan oshgan taqdirda, korxonalar tomonidan unga yetarli e’tibor

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.